

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil).– 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

TIBBIYOT FANLARI

INGLIZ TILI TARIXIY DAVRLARIDA KARDIOLOGIYA TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Karimova Baxriniso Islombek qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Email: baxrinisokarimova1997@gmail.com**Karimov Izzatulla Kamoliddin o'g'li**

Andijon davlat tibbiyot instituti assistenti

Email: izzatullakarimov2944115@gmail.com

ORCID: 0009-0000-2553-2714

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilida tibbiy terminlar xususan kardiologiya sohasi leksik birliklarining rivojlanish tarixini o'rganadi. Maqolada terminlarning diaxron tahlili to'rt bosqichda amlaga oshirildi. Shuningdek, har bir bosqichda tibbiy tilshunoslikka kirib kelgan terminlar etimologiyasi zamonaviy soha leksik birliklari bilan qiyosiy o'rgandi.

Kalit so'zlar: diaxron tahlil, qadimiy ingliz tili, ilk yangi ingliz tili davri, zamonaviy ingliz tili davri, terminologik aniqlashuv, semantik ixtisoslashuv.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF CARDIOLOGY TERMINOLOGY IN THE HISTORICAL PERIODS OF THE ENGLISH LANGUAGE

Karimova Bahriniso Islambek qizi

Independent researcher of Andijan State Medical Institute

Karimov Izzatulla Kamoliddin o'g'li

Assistant of Andijan State Medical Institute

Annotation. This article examines the historical development of English medical terminology, with particular emphasis on the lexical units of the field of cardiology. The diachronic analysis of the terminology is conducted across four historical stages. Furthermore, the etymology of the medical terms introduced during each stage is comparatively analyzed in relation to contemporary cardiological lexical units.

Keywords: diachronic analysis, old english period, early modern english period, modern english period, terminological standardization, semantic specialization.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i15/n19>

Zamonaviy lingvistikada terminologiya yo'nalishi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar soni izchil ravishda ortmoqda va bunday tadqiqotlar mahalliy hamda xorijiy tilshunoslar tomonidan chuqur o'rganilmoqda.

Tibbiyot sohasi terminlari diaxron tahlili doimo tilshunos olimlar diqqat markazida bo'lgan. Ushbu maqolada avvalo cardiology so'zining etimologiyasi bilan boshlashni zarur deb topdik. Ushbu so'z *etymonline* [1] - onlayn etimologik lug'atida *cardio* yunon tilida ifodalanuvchi *kerd*-yurak so'zining lotin tiliga moslashtirigan shakli *kardia* so'zi indoyevropa ildiziga borib taqaladi, *-logy* esa so'z yasovchi qo'shimcha bo'lib, risola, nazariya, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Bu qo'shimcha o'rta asr lotin tilidagi *-logia*, fransuz tilidagi *logie*, yunon

tilidagi *-logia* so'zlari asosida shakllangan bo'lib, *legein* (aytmoq, gapirmoq) fe'lidan kelib chiqqan. Umumiy olganda bu termin muayyan mavzuni o'rganish bilan shug'ullanuvchi shaxsning xususiyatlarini anglatadi.

Tahlil davomida diaxron tahlilni Old English, Middle English, Early modern English hamda Modern English bosqichlariga bo'lib o'rgandik.

Old English- qadimiy ingliz tili davri bo'lib, M.Sara va M.D.Jordan[2] larning fikriga muvofiq ingliz tiliga bo'lgan turli ta'sirlar anglo-saks lug'at boyligini kengroq saqlanishiga va tilning kelib chiqishini yanada ravshan ko'rinishiga to'siq bo'lgan. Bu davr 450-1100 yillarni o'z ichiga oladi *hamda Bald's Lechbook, Lacnunga, Herbarium* kabi muhim tibbiy manbalar ayna shu davrga tegishlidir. Old English davri Beowulf asarining tilidir.[3] Ushbu asar tibbiy terminlarni faqat tibbiy diskursda emas balki adabiy, diniy va qahramonlik diskursida ham qay tarzda qo'llanilganini namoyon etadi. *Quyidagi jadvalda esa anglo-sakson ildiziga borib taqaluvchi tibbiy organlar nomlari hamda ularning yunon lotin tilidagi shaklini ko'rishimiz mumkin.*

Organ nomi	Anglo-sakson shakli	Yunon-lotin shaklidagi sifat
Kidney	kidenere	Renal
Heart	Heorte	cardiac
Liver	Lifer	hepatic
Lung	Lungen	pulmonary

Ushbu davrda kardiologiya sohasi rivoji yetuk bo'lmagan bo'lsa da ammo bir qancha soha leksik birliklari bizgacha saqlanib qolgan: Quyida bu davrga aloqador bo'lgan leksik birliklar ifodalangan.

Heart— (Anglo-saxon)heorte, meaning life and the seat of life and strength[4]. Heart so'zi qadimgi ingliz tilidagi *heorte* so'zidan kelib chiqqan va *"hayot markazi", "kuch manbayi"* ma'nolarini ifoda etgan.

Heartache (yurak og'rig'i, iztirob) — qadimgi ingliz tilida heort ece degan ibora bo'lgan bo'lib, "yurakda yoki uning atrofida jismoniy og'riq" degan ma'noni anglatgan; bu so'z *heart* (yurak) va *ache* (og'riq) so'zlaridan tashkil topgan. "Aqliy iztirob" (ya'ni ruhiy azob) ma'nosidagi ishlatilishi taxminan milodiy 1600-yillardan boshlab paydo bo'lgan. Biroq qadimgi ingliz tilida ham *heartsarnes* degan so'z mavjud bo'lib, u "g'am, qayg'u", ya'ni "yurak og'rishi" degan ma'noni bergan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Old English davriga oid bo'lgan bir qancha leksik birliklar Online etymology lug'atida ifoda etilgan bo'lib, ular quyidagilar: *heorte-yurak, blod-qon, breost-ko'krak, leech-davo, acan-ache*.

Middle English – ingliz tilining o'rta davri. Ushbu davrning boshlanish nuqtasi 1066 yil Normand istilosiga to'g'ri keladi va 15-asr oxiriga qadar davom etgan.

Ushbu davrga tegishli leksik birliklardan biri *artery* termini hisoblanib, u yunnon arteria so'zidan kelib chiqqan. Dastlab *"havo olib yuruvchi nay"* ma'nosida talqin etilgan bo'lib, qon aylanish tizimining o'rganilishi esa bu terminning qon tomir ma'nosida qo'llanilishiga olib keldi. Keyingi sohaning muhim termini aorta hisoblanib, ushbu so'z yunon tilidagi *airein* fe'lidan kelib chiqqan, o'zbek tilida *ko'tarmoq, olib chiqmoq* ma'nolarini ifodalaydi. Soha diaxron tahlili mobaynida terminlar nafaqat yunon va lotin tilidan balki fransuz tilidagi *veine* terminidan vein yasalgan. Ushbu davr tibbiy terminlar yutuqlari va bizgacha yetib kelgan

ko'lam ham diqqatga sazovordir. Shifokorlar tomonidan yoziladigan tibbiy yoriqnomalar xattoki eng ko'p ko'chirilgan ma'lumotlar bo'lganligi buning yaqqol misolidir. Shuningdek, bitta yirik ma'lumotlar bazasida XV asrda ingliz tilida ko'chirilgan 1 800 dan ortiq tibbiy yo'riqnomalar yoki yo'riqnoma to'plamlari qayd etilgan.[6] Bunga misol qilib kardiologiya sohasining muhim leksik birliklaridan biri *artery*[7] [45]ni aytishimiz mumkin.

Artery leksik birligi bilan bir o'rinda manbada uchragan boshqa kardiologik terminlar ham tarixiy va zamonaviy shakllarda qiyosiy tahlil etildi. Ularning ingliz va o'zbek tilidagi variantlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Termin (asl shaklida)	Hozirgi ingliz tilida	O'zbek tilida
herte	Heart	Yurak
Puls, pulse	Pulse	Puls
Arterie	Artery	Arteriya
veine	Vein	Vena
sanguine	Sanguine	Sangvinik, qonli
cardiac	Cardiac	Yurakka oid
Artire blood	Blood in artery	Arterial qon
aorta	Aorta	Aorta
Arteria magna	Aorta	Katta arteriya
Lift ventricle	Left ventricle	Chap qorincha
Arteria venalis	Pulmonary vein	O'pka venasi

O'pka venasining *arteria venalis* deyilishi sababi, tomirning tuzilishi vena kabi ammo vazifasi arteriyaga o'xshash deya talqin etilganligidadir.

Early modern English- ilk yangi ingliz tili davri hisoblanib, u 1500-1700-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davr ingliz tibbiy terminologiyasida tub burilish bo'di deyishimiz mumkin. buning sababi esa 1657-yilda nashr etilgan *A physical dictionary* lug'ati hisoblanib, u ingliz tilidagi tibbiy terminologiyaga bag'ishlangan ilk lug'at edi.

Ilk yangi ingliz tili davrida kardiologiya sohasi leksik birliklari miqdor jihatdan ko'payishi bilan bir qatorda semantik jihatdan o'zgargan, ilmiylashgan yoki terminologik standartlashgan. Tahlil jarayonida bu kabi o'zgarishlarga uchragan qator terminlar aniqlandi.

Termin	Nima uchun semantik tahlilga mos?	O'zgarish turi
Aorta	Gippokrat-bronxial naylar, Aristotel-yurak asosiy arteriyasi, XVI asrdan ingliz tibbiy terminologiyasida anatomik termin sifatida mustahkamlandi	Tibbiy diskursda terminologik aniqlashuv
circulation	umumiy "aylanish" ma'nosidan W. Harvey tomonidan qon harakati, boshlang'ich nuqtasiga qaytishi ma'nosida	Semantik ixtisoslashuv+ilmiylashtirish
carotid	Bo'yindagi yirik arteriya, uyqu arteriyalari, XVI asrdan <i>carotid artery</i> shaklida kardiologik va anatomik diskurs termini sifatida mustahkamlangan	Semantik aniqlashuv

catheter	Asl ma'no: ichkariga kiritilgan narsa; XVI asrdan boshlab tibbiy asbob ma'nosida, XX asrdan yurak diagnostikasi va davolashidagi maxsus termin darajasida	Semantik aniqlashuv+Terminologik kengayish
-----------------	---	--

Modern English- zamonaviy ingliz tili davri. Zamonaviy tibbiy terminologiya, xususan kardiologiya sohasi terminlari hozirgi globallashuv ta'siri ostida jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir va ular butun dunyo tibbiy leksikasining asosiy qatlami sifatida mustahkam o'rin egallagan.

Ushbu davrda kardiologiya sohasi rivoji uchun qator izlanishlar olib borildi. Ulardan biri A.D.Wallerning elektrofiziologiya sohasiga qo'shgan hissasidir. U inson yuragining elektr faoliyatini oyoq-qo'llardan qayd etgan birinchi olim edi[5]. Zamonaviy ingliz tili davrida qator olimlar sohaga oid bo'lgan leksik birliklarni iste'molga olib keldilar. Quyida ularning bir qanchasi tahlilini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilida termin	yil	Ilk qo'llagan olim, manba	Ma'no
Angina pectoris	1768	Willim Heberden	stenokardiya
Electrocardiogram	1895	G.N.Stewart	elektrokardiogramma
electrocardiography	1910	<i>Canadian Journal Med. & Surgery.</i>	elektrokardiografiya
atrial fibrillation	1910	<i>Journal of American Medical Association.</i>	Bo'lmachalar fibrillyatsiyasi
Myocardial infarction	1927	Heart	Miokard infarkti

Zamonaviy ingliz tili davrida barcha sohalar qatorida kardiologiya sohasi terminologiyasi ham jadal rivojlandi va ko'plab yangi leksik birliklar iste'molga kirib keldi. Ularga *oxygenated, fibrillary, oxygenate, peripheral, repolarization, bicuspid, angiocardigraphic, troponin, microcirculation, oxygenate, coronary artery bypass, cardiometrical, ischaemic, pyopneumopericardium, cardioplegia, ischemia, fibrillated, cardioplegic, pulsational, cardiological, fibrillate, cardiographically, coronary thrombosis* kabilarni yaqqol misol sifatida sanab o'tishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. <https://www.etymonline.com/word/cardiology>
2. Sara M. Jordan M,D. Medicine and the doctor in word and epigram, The new England journal of medicine. Vol 248. Num 21. 1953. P 876-883
3. Bowen, C., (2015). Where did English come from?, <https://www.youtube.com/watch?v=YEaSxhcns7Y> (access 12.5.2018).
4. <https://www.massmed.org/About/MMS-Leadership/History/Medicine-and-the-Doctor-in-Word-and-Epigram/>
5. Fredrick A.W history of the heart and the circulation W.B.Saunders company, 1948, 194p
6. Sources=etkev2& (an electronic version of eVK2) [accessed 19/11/2021]. I reached this number through an advanced search on the terms 'medical recipe' and '+15c' (1,861 results). The database also gives sixty- eight results for the search terms 'medical recipe' and '+14c', but I have omitted these from the count so as not to skew the comparison with fifteenth- century manuscripts of Chaucer. It should also be noted that in eVK2, Kurtz and

Voigts have only recorded groups of three recipes or more and individual recipes of interest.

7. Norri J. Dictionary of Medical Vocabulary in English, 1375–1550: Body Parts, Sickneses, Instruments, and Medicinal Preparations. – Abingdon, Oxon; New York: Routledge, 2016. – 701 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 15-son (13-avgust, 2026-yil). – 103 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.